

O'QIB TUSHUNISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHGA OID TOPSHIRIQLAR TAHLILI (6-sinf misolida)

Axmadaliyeva Maftunabonu Elmurodjon qizi

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti talabasi**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15602054>

ANALYSIS OF TASKS RELATED TO THE FORMATION OF READING COMPREHENSION SKILLS ON THE EXAMPLE (OF GRADE 6)

Akhmadaliyeva Maftunabonu Elmurodzhon's daughter

**Student of Tashkent State University of Uzbek language and Literature named after
Alisher Navoi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'qib tushunish ko'nikmasi haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. Bundan tashqari 6-sinf ona tili darsligidagi o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar tahlil qilinib va qo'shimcha metodik tavsiyalar berilgan.

Annotation: This article provides detailed information about the skills of reading and understanding. In addition, tasks aimed at developing reading comprehension skills in the textbook of the 6th grade native language are analyzed and additional methodological recommendations are given.

Kalit so'zlar: Tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish, metod, topshiriqlar, ona tili darsligi, davlat ta'lim standartlari.

Keywords: listening, understanding, reading, speaking, writing, method, assignments, mother tongue textbook, state education standards.

Bugungi kunda ona tilini o'qitishda to'rtta nutqiy ko'nikmalardan faol foydalanilmoqda. Bular: tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish va yozish. Ushbu nutqiy ko'nikmalar o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlashiga, har qanday vaziyatda o'z fikrini erkin, mustaqil bayon qilishi uchun xizmat qiladi. Yaratilayotgan darsliklarning asl mahiyati ham shuni tashkil qiladi. Ona tili fanining maqsadi ham o'quvchiga hayotni anglatish, hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishdir.

Bugungi globallashuv va axborot asrida o'qib tushunish ko'nikmasi har bir inson uchun muhim hayotiy zaruriyatga aylangan. Axborotni tezda qabul qilish, uni anglash, tahlil qilish jamiyatda faol va muvaffaqiyatli bo'lishning asosiy shartlaridan biriga aylandi. Shu bois, o'qib tushunish ko'nikmasi dolzarb masala sifatida e'tirof etilmoqda.

O'qib tushunish – bu matnning grafika yordamida ifodalangan mazmunini muloqot vazifasiga muvofiq qabul qilish va qayta ishlash, mazmunan anglashga doir ko'nikma. O'qish obyekti sifatida faqat yozma matn tushunilmaydi. Rasmlar, chizmalar, grafiklarda tasvirlangan axborotlar, shuningdek, ovozlashtirilmagan videomateriallarni ko'rib ularda berilgan axborotni tushunish ham o'qib tushunish jarayoniga kiradi. O'qishdan maqsad matnli axborotni qabul qilish va qayta ishlashdan iborat.[1:34] Matnni o'qish murakkab jarayon bo'lib, u psixologik, pedagogic va psixofiziologik aspektlarda o'rganiladi.

Ko'plab rivojlangan xorijiy davlatlarda o'qib tushunish ko'nikmasi maktab

ta'limining markaziy qismi hisoblanadi. Darslar faqat matnni o'qish bilan cheklanmaydi, balki matnni tahlil qilish, tanqidiy fikrlash, ma'lumotni baholash va mustaqil xulosa chiqarish, matnga oid topshiriqlar ustida ishlash kabi faoliyatlar asosiy o'rinni egallaydi. Maxsus dasturlar orqali (misol uchun PISA testlari) o'quvchilarning o'qib tushunish darajasi muntazam baholanib boriladi.

Hozirgi ta'lim tizimida O'zbekistonda ham o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Maktablarda yangi darsliklar va turli metodlar yordamida bolalarning mustaqil fikrlashi va matnni anglash qobiliyatini oshirish maqsadida turli xil mavzularda, turli xil topshiriqlar berilmoqda. Shuningdek, xalqaro baholash dasturida (PISA) ishtirok etib bu ko'rsatkichni yanada yaxshilash choralari nazarda tutilgan. Yaratilayotgan bu imkoniyatlar o'quvchilarning savodxonligini, ijodiy va tanqidiy tafakkurini shakllantirishga qaratilgan.

O'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmasini shakllantirish darsliklarda quyidagicha aks etgan: 6-sinf ona tilidarsligidagi "Ko'zlarimiz – eng aziz do'stlarimiz?" nomli matn va ushbu matnga oid topshiriqlarni ilmiy-tadqiqotchi o'qituvchi sifatida tahlil qildim. Dastlab, nutqiy mavzudaga oid matn, undan keyin matnga oid savollar va mavzuni mustahkamlovchi topshiriqlar berilgan.

Ko'zlarimiz – eng aziz do'stlarimiz

1. Matnda ko'zga qanday ta'riflar berilgan? Qosh va kipriklarga-chi? Siz qanday ta'riflagan bo'lardingiz?

2. Ko'z qorachig'i nima? Uning ko'rish jarayonidagi o'rni qanday?

3. Qosh va kipriklar qanday vazifani bajaradi?

4. Ko'zga oid qaysi ma'lumot sizni hayron qoldirdi? Nima uchun?

1- *topshiriq*. Matnda ajratib ko'rsatilgan olmoshlarni ular ishora qilayotgan birliklar bilan birga ko'chiring.

Namuna *ular – ko'zlar*.

Matnda qo'llangan fe'llarning qaysi zamonga tegishli ekanini aniqlab, yozing. Shaxs sonini ayting.

2- *topshiriq*. Ko'z bilan bog'liq turli shakllardagi birliklarni moslab ko'chiring. Ushbu birikmalar ishtirokida gaplar tuzib, yozing.

ko'z - ko'l

ko'zyoshdek tiniq - ochilmoq

ko'zi - asramoq

ko'z qorachig'idek – ilinmoq[2:50].

Berilgan matn va uning topshiriqlari o'quvchilarning tafakkur ong osti jarayonini shakllantirish bilan birga, ularning lingvistik bilimlarini va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ilmiy-tadqiqotchi o'qituvchi sifatida ushbu nutqiy mavzuni o'qitish bo'yicha quyidagi metod va usullarni tavsiya qilaman.

1- *topshiriq*. "Matn ichida yashiringan topshiriq" metodi. Matn ichiga maxsus yashirilgan topshiriq qo'yiladi. O'quvchi matnni diqqat bilan o'qib, yashirin topshiriqni topishi va bajarishi kerak bo'ladi.

O'qituvchi matnni o'quvchilarga o'qitadi. Matnga aloqador savollar beriladi. Savollarga javob bergan o'quvchilar matn ostida yashiringan kalit so'zlarni topishi kerak bo'ladi. Kalit so'zlar o'quvchining bergan javoblari ichida yashiringan.

Ushbu metod o'quvchilarga o'qigan matnni to'la anglash, uni hayotga tatbiq eta olish, o'z ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantirib, tafakkurini rivojlantiradi.

2- *topshiriq*. "Bahsli nuqtani aniqlash" metodi. O'quvchi matndagi biror fikrga "bu fikrga hamma qo'shilmasligi mumkin" deb yondashadi va u haqida bahsli savol tayyorlaydi yoki unga javob izlaydi. Matndan quyidagi ibora tanlanadi: "Ko'zlarimizning eng yaqin himoyachilari bu qosh va kipriklardir" O'quvchilarga quyidagicha savol beriladi: "Siz bu fikrga qo'shilasizmi? Yo'q bo'lsa, nima uchun? Fikringizni asoslab yozing". O'quvchi fikrlashga o'rganadi, faqat yodla bolishdan chetlashadi. Tanqidiy qarash, asosli mulohaza bildirish shakllanadi. Har bir o'quvchi o'z fikrini bildirish orqali matnga nisbatan shaxsiy munosabatini shakllantiradi.

3- *topshiriq* "Infrografika yasaymiz" metodi. O'quvchilar matn asosida ko'z haqidagi faktlarni sxema, diagramma yoki rasmlı jadvalga joylaydilar. Bunda O'quvchilarga quyidagicha topshiriq beriladi: "Ko'z rasmini chizing, uning atrofiga matnda berilgan faktlarni o'zingiz xohlagandek ijodiy yondashgan holda joylashtiring". Ushbu metod matnni vizual tarzda qayta ishlashni o'rgatadi (visual savodxonlik). Matndan olgan mazmunni xulosalashga, matnni o'zi uchun muhim deb bilgan qismini xotirada saqlab qolishga imkon beradi. Bundan tashqari ushbu metod mediasavodxonlikni shakllantirish bilan birga ijodiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak ushbu metodlar o'quvchini matnni o'zlashtirish imkonini oshirish bilan birga, ijodiy fikrlashga, og'zaki va yozma nutqini shakllantirishga xizmat qiladi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish asoslari / Asilova.G va boshqalar. Toshkent: 2024. – 60 b.
2. Allaberdieva, G. B. (2020). Developing students vocabulary learning strategies. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(11), 199-203.
3. Исроилов, М. И., & Исроилова, С. М. (2022). Хукукий Маданият Йўлида. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(Special Issue 2), 82-87.
4. Ona tili [Matn]: 6-sinf uchun darslik / K. M. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.–224 b.